

AGR



IQTISODIYOT

ilmiy-amaliy agroiqtisodiy jurnal



4

2024

Agroiqtisodiyot

илмий-амалий агроиқтисодий журнал

МУНДАРИЖА

3. **Я.АЛИЕВ.** Қишлоқ хўжалиги соҳасида озиқ-овқат хавфсизлиги таъминлаш масалалари
7. **Н.АСКАРОВ.** Қишлоқ хўжалигида яратилаётган қўшилган қиймат занжирида кўп тармоқли тadbirkorlik субъектлари иштирокини кенгайтириш сценариялари
11. **A.TOSHBOYEV.** Agrar sohani rivojlantirishda kadrlar qo'nimsizligi muammolarini bartaraf etish yo'llari
14. **F.ДУСМУРАТОВ.** Қишлоқ хўжалиги ва озиқ-овқат соҳасида давлат-хусусий шериклик лойиҳаларини ташкил этиш
18. **У.САДУЛЛАЕВ.** Чорвачилик тармоғини технолог модернизациялаш ва интенсивлаштиришнинг айрим жиҳатлари
21. **D.YANGIBAEV.** Economic efficiency of the use of resource-saving technologies on rain fed lands
24. **I.RUSTAMOVA, F.JO'RAEV.** Bog'dorchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish samaradorligini ekonometrik modellar asosida baholash
29. **J.FARMANOV.** Asalarichilikda raqamli texnologiyalarni transformatsiya qilishni iqtisodiy rag'batlantirish
32. **O.FAYZIYEV.** Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda baliqchilik tarmog'ining ahamiyati va o'rni
36. **У.ХАЛИЛОВ.** Ғаллачилик тармоғида иқтисодий самарадорликни оширишга таъсир этувчи омиллар ва модернизациялаш йўналишлари
39. **С.ГАППАРОВ, З.ДЖУМАЕВ, А.УТАЕВ, Ф.ЮСУПОВА, А.УРАЗКЕЛДИЕВ, Ш.ТОҒАЕВ.** Муқобил энергия асосида ишлайдиган томчилатиб суғориш тизимининг самарадорлиги
44. **H.QOSIMOVA.** Barqaror iqtisodiy o'sishning konseptual jihatlari va ta'minlash omillari
48. **A.KOZIMJONOV.** Xalqaro standartlarga muvofiq pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobotni tuzish metodologiyasini takomillashtirish
51. **O.AZIZOV.** O'zbekiston fond bozoriga investitsiya qilish masalalari
55. **S.AKHMETOVA.** Some aspects of accounting for biological assets
58. **N.BERDIQOBILOV.** Aksiyadorlik jamiyatlarida xarajatlar boshqaruv hisobiga nisbatan zamonaviy yondashuv tahlilida muammo va istiqbollar
61. **X.ESHQULOVA, Y.XUJABOYEVA, D.NE'MATOVA.** Chorva-chilik tarmog'ida kichik tadbirkorlikni rivojlantirish ahamiyati va yo'nalishlari
64. **Z.MAKKAMOV.** Tashqi savdo tizimli auditi: oziq-ovqat xavfsizligi tahlili
68. **M.MIRZAYEV.** Globallashuv sharoitida transchegaraviy suv resurslardan samarali foydalanishni boshqarish
71. **S.RASULOV.** State support of insurance as a tool for agricultural risk management
74. **U.SHERIPBAEVA.** Iqlim o'zgarishi sharoitida meva sabzavot mahsulotlarini yetishtirishni rivojlantirish yo'nalishlari
77. **N.SOIPOVA.** Aholi farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirish yo'nalishlari
80. **S.YAKUBOV.** Qishloq xo'jaligi faoliyatini sug'urtalashda davlat ishtirokining xorij tajribasi
82. **М.АЗИЗИЛЛАЕВ.** Тўқимачилик саноати маҳсулотлари ишлаб чиқариш бўйича қарор қабул қилишда маркетинг тadbirkorliklarining аҳамияти
85. **С.ЖУМАНИЁЗОВ.** Развитие пищевой промышленности узбекистана на основе кластерного подхода
88. **F.JO'RAYEV.** Bog'dorchilik tarmog'ida innovatsiyalarni baholash usullarining ayrim jihatlari
91. **A.KOZIMJONOV.** Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot tuzish metodologiyasini takomillashtirish
94. **A.МУРАТОВ.** Подходы к оценке стоимости бизнеса: преимущества и недостатки
97. **J.RASHIDOV.** Innovatsion faoliyat xatarlarini boshqarish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribalari
100. **М.ТАИРОВА, А.ДУСТОВА.** Event-маркетинг, специфика развития событийного маркетинга в Узбекистане
104. **Ж.УРАЗМАТОВ.** Қўшилган қиймат солиғини ундириш амалиётини такомиллаштириш усулбўи
107. **П.ХОЛИЁРОВ.** Қишлоқ хўжалигида маҳсулот етиштиришга таъсир этувчи омиллар таҳлили
109. **B.ADASHALIYEV.** Xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lov qobiliyatini mustahkamlash yo'llari va istiqbolli prognozlar
113. **M.QO'CHQOROVA.** Markaziy Osiyoda risk menejmenti dolzarbligini oshirishdagi islohotlar
116. **R.RASHIROV.** Paxtachilikda integratsion munosabatlarni rivojlantirishda paxta-to'qimachilik klasterlarining tutgan o'rni
119. **L.XO'JAMOVA.** O'zbekistonda agrar siyosatni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari
122. **Ш.АЗИЗОВ, Х.ҒАДОЕВ.** Собенности оптимизации транспортно-логистических процессов в сельском хозяйстве
125. **Ф.АЛЛАДЎСТОВА.** Яйловлардан самарали фойдаланишнинг ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш
128. **S.O'RAZBOYEV.** Parrandachilik tarmog'ida mahsulot yetishtirish tahlili, xarajatlar hisobini tashkil etish va tannarx aniqlashning xususiyatlari
131. **И.ХАСАНОВ.** Қишлоқ хўжалигида илмий таъминот тизимининг йўналишлари ва уни молиялаштириш масалалари
135. **Д.ХАЙТБАЕВА.** Эркин иқтисодий зоналарни ташкил этишнинг жаҳон тажрибаси
139. **Р.НУРБЕКОВА.** Ғаллачиликда ресурс тежовчи технологиялардан фойдаланишнинг самарадорлик курсаткичлар тизими
142. **М.ЯХЯЕВ, Ф.ИРИСОВ.** Резавор мевалар етиштиришни рағбатлантиришда хориж тажрибаси

Agroiqtisodiyot

илмий - амалий агроиқтисодий журнал

4 (35), 2024

БОШ МУҲАРРИР:

Назимжон АСКАРОВ

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

Алишер ШУКУРОВ
Акмал ҚОСИМОВ
Шохрух АКРАМОВ
Саидасрор ҒУЛОМОВ
Норқул ХУШМАТОВ
Ражаббой ДУСМУРАТОВ
Тулкин ФАРМАНОВ
Фотима НАЗАРОВА
Ирода РУСТАМОВА
Яшнаржон АЛИЕВ
Абдуҳолиқ МУХТОРОВ
Муҳаммаджон ҚОСИМОВ
Исроилжон ХОЛМИРЗАЕВ
Аслиддин АБДУЛЛОЕВ
Акмал НОРОВ
Бахтиёр МЕНГЛИКУЛОВ
Зебо ШОХУЖАЕВА
Зибахан СЕЙТИМБЕТОВА
Улуғбек САДУЛЛАЕВ
Дилшод ЯНГИБОЕВ
Абдурауф ОБЛОҚУЛОВ
Нодир ЖАНИБЕКОВ

МУАССИС:

Озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги соҳасида стратегик
ривожланиш ва тадқиқотлар халқаро маркази (ISCAD)

Журнал Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлигида 2017 йил 10 мартда
0909-рақам билан рўйхатга олинган.

Журнал 2017 йил июндан чиқа бошлаган.

Бир йилда 4 мартда чоп этилади.

© Agroiqtisodiyot, 2024



Agroiqtisodiyot





BARQAROR IQTISODIY O'SISHNING KONSEPTUAL JIHATLARI VA TA'MINLASH OMILLARI

Hilola QOSIMOVA,
Buxoro Davlat Universiteti, o'qituvchi

Annotatsiya. Maqolada barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda jamg'arish, investitsiyalar samaradorligi, ta'lim, jahon iqtisodiyotiga integratsiya va ratsional makroiqtisodiy dasturlarni amalga oshirish kabi omillarning muhimligi ko'rsatilgan.

Аннотация. В статье подчеркивается важность таких факторов, как сбережения, эффективность инвестиций, образование, интеграция в мировую экономику, реализация рациональных макроэкономических программ в обеспечении устойчивого экономического роста.

Abstract. The article emphasizes the importance of factors such as savings, investment efficiency, education, integration into the global economy, and the implementation of rational macroeconomic programs in ensuring sustainable economic growth.

Kirish. Xalqning turmush darajasini oshirish, erkin va farovon hayotni qurishda milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash va jamiyat a'zolarining daromadlarini oshirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy o'sish muayyan davr mobaynida mamlakatda tovar va xizmatlar ishlab chiqarish darajasining ijobiy o'zgarishidir. Boshqacha aytganda, iqtisodiy o'sish bu milliy iqtisodiyotda muayyan davr davomida (odatda bir yil) mahsulotlar ishlab chiqarish hajmining oshishidir.

Iqtisodiy o'sish nazariyalarining rivojlanishida neokeynschilik, neoklassiklar va institutsionalizm yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Ushbu yo'nalishlar doirasida esa iqtisodiy o'sishning turli nazariy modellari yaratila boshlandi. XX asrning o'rtalarida keynschilikning makroiqtisodiy muvozanat nazariyasi asosida yangi yo'nalish, ya'ni neokeynschilik vujudga keldi. Iqtisodiy o'sishning dinamik modelarini ishlab chiqqan neokeynschilik vakillari orasida ingliz iqtisodchisi Roy Harrod o'z modelida ishchi kuchi, aholi jon boshiga daromad va naqd kapital o'sishi o'rtasidagi munosabatlarni tadqiq qildi. U milliy daromadning kapital sig'imlilik darajasini ifodalovchi "kapital koeffitsienti" tushunchasini yaratdi. R.Xarrod kapital sig'imlilik mezonidan texnika taraqqiyotining iqtisodiyotga ta'sirini tahlil qilishda foydalandi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Iqtisodiy o'sish nazariyalarining rivojlanishiga amerikalik olim Uolt Rostouning "iqtisodiy o'sish davrlari nazariyasi" katta ta'sir ko'rsatdi. U iqtisodiy o'sishning beshta davrini taklif etgan:

- "an'anaviy" jamiyat,
- "uchish" (ko'tarilish)ga shart-sharoit

yaratish yoki o'tish davri,

- "uchish" (ko'tarilish) davri,
- yetilish (ilmiy-texnik inqilob) davri,
- yuqori ommaviy iste'mol davri.

Iqtisodiy o'sishning neoklassik modellari amerikalik olimlar Charlz Kobb va Pol Duglas tomonidan ishlab chiqilgan ishlab chiqarish funksiyasiga asoslanadi. Kobb-Duglas funktsiyasi hozirgi kunda ham iqtisodiy o'sishning alohida omillarini, ayniqsa texnik rivojlanishni baholashda foydalaniladi.

Neoklassik nazariyasi vakili Robert Solou o'z modelida jamg'armalar, mehnat resurslari o'sishi va ilmiy-texnik taraqqiyotning aholi turmush darajasi va uning dinamikasiga ta'sir qilish mexanizmini aniqladi. Ushbu model iqtisodiy o'sishning muvozanatli traektoriyalarini tadqiq qilishga mo'ljallangan bo'lib, differentsial tenglamalar tizimi shaklida namoyon bo'ladi. Mazkur model o'sayotgan asosiy kapitalning jon boshiga mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirishga olib kelishi mexanizmini ko'rsatadi. R.Solouning asosiy xulosasi shuki uzoq muddatda iqtisodiy o'sish sur'atlari kapital qo'yilmalar oshishiga emas, balki texnologik rivojlanish omiliga bog'liq bo'ladi. Shunday ekan, uningcha doimiy texnik rivojlanish va resurslardan samarali foydalanish iqtisodiy o'sishning asosiy omillari hisoblanadi.

Pol Romer va Robert Lukas 1980-yillar oxiri va 1990-yillarning boshlarida Solou modelidan qoniqmagan holda endogen iqtisodiy o'sish nazariyasini yaratdilar. Bu nazariya texnologik taraqqiyotni matematik tushuntirishni nazarda tutar edi va o'z ichiga ishchilar faoliyati samarasini oshiradigan bilim, malaka va qobiliyatni

Kalit so'zlar: ekstensiv o'sish, intensiv o'sish, iqtisodiy rivojlanish, ekologik barqarorlik, barqaror iqtisodiy o'sish, iqtisodiy diversifikatsiya.

ifodalaydigan inson kapitali tamoyilini ham olgan edi. Boshqa kapital shakllaridan farqli ravishda inson kapitalining rentabelligi o'sish tendentsiyasiga ega bo'ladi. Shuning uchun mamlakatning iqtisodiy o'sishi kapital to'plangani sari sekinlashmaydi va iqtisodiy o'sish sur'atlari kiritilayotgan kapital turiga bog'liq bo'ladi. Inson kapitalini oshiradigan omillar sifatida esa ta'lim va innovatsiyalar keltiriladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy maqolani tayyorlashda ilmiy abstraktsiya, induksiya va deduksiya, ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarni tizimli tahlil qilish, qiyosiy tahlil singari usullardan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. "Iqtisodiy o'sish" va "iqtisodiy rivojlanish" tushunchalari o'rtasida farq mavjud albatta. Iqtisodiy o'sish deganda moddiy ne'matlarni ishlab chiqarishning miqdoriy jihatdan ko'payishini tushunsak, iqtisodiy rivojlanish

turlarga bo'linadi. Ekstensiv iqtisodiy o'sish moddiy ishlab chiqarishda foydalaniladigan resurslar hajmining oshishi natijasida kelib chiqadi. Boshqacha aytganda, ekstensiv iqtisodiy o'sish tabiiy resurslar, ishchi kuchi va kapital kabi ishlab chiqarish omillarini qo'shimcha jalb qilish va faqat ularning miqdoriy oshishi hisobiga ro'y beradi. Bunda ularning sifat va texnikaviy darajasi o'zgarmasdan qoladi.

Intensiv iqtisodiy o'sish esa ilmiy-texnikaviy bazani takomillashtirish va barcha ishlab chiqarish omillaridan yanada samarali foydalanib mehnat unumdorligini oshirish orqali ta'minlanadi. Real hayotda esa ekstensiv yoki intensiv o'sish alohida sof holda uchramaydi, balki o'zaro ta'sirlashadi va aralash holatda uchraydi.

Ekstensiv va intensiv iqtisodiy o'sish turlarining xususiyatlarini tizimlashtirib quyidagicha ifodalash mumkin.

1-jadval. Iqtisodiy o'sish turlari.

Iqtisodiy o'sish turlari	
Ekstensiv iqtisodiy o'sish	Intensiv iqtisodiy o'sish
Ishlab chiqarish omillari miqdorini avvalgi texnikaviy darajani o'zgartirmasdan oshirish	Ishlab chiqarish omillari sifatini takomillashtirish
Ishlab chiqarish omillaridan foydalanish samaradorligi oshirishning yo'qligi	Ishchilar chiqarish omillaridan foydalanish samaradorligining oshishi
Ishchilar sonining oshishi	Ishchilar malakasining oshishi
Kapital qo'yilmalarning oshishi	Tejamkorlik mexanizmi
Ishlayotgan xom-ashyo hajmining oshishi	Ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlaridan foydalanish
Mahsulotlar tarkibiy tuzilishining o'zgarishligi	Ishlab chiqarishni tashkil qilish va uning usullarini takomillashtirish
Tabiat resurslaridan nooqilona foydalanish	Mahsulotlar assortimentini kengaytirish va sifatini oshirish
Iqtisodiy inqirozning muqarrarligi	Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish

deganda esa iqtisodiy o'sishga nisbatan kengroq tushunchani, ya'ni nafaqat ishlab chiqarish hajmining ortishini, balki aholi turmush darajasi o'sishini va iqtisodiyotda bo'layotgan turli xildagi o'zgarishlarni ham ifodalanishi tushuniladi. Iqtisodiy rivojlanish - iqtisodiy o'sishga nisbatan kengroq tushuncha bo'lib, u nafaqat ishlab chiqarishning ortishini, balki uning kamayishini hamda iqtisodiyotdagi o'zgarishlarni ham ifodalab keladi. Iqtisodiy rivojlanish ko'p tomonli jarayon hisoblanadi hamda texnik, iqtisodiy va ijtimoiy sohalaridagi o'zgarishlarni o'z ichiga qamrab oladi. "Iqtisodiy o'sish" tushunchasiga muqobillik sifatida ba'zida aholining turmush darajasini ifodalovchi ko'rsatkich namoyon bo'lishi mumkin. Iqtisodiy rivojlanish ko'p jihatli jarayon hisoblanib, o'z tarkibiga texnik, iqtisodiy va ijtimoiy sohalaridagi o'zgarishlarni qamrab oladi. Iqtisodiy o'sish ekstensiv va intensiv

ifodalash mumkin. Iqtisodiy o'sish doimo iqtisodiy va noiqtisodiy omillar ta'siri natijasida kelib chiqadi. Iqtisodiy o'sish omillari deb ishlab chiqarishning real hajmi oshishi, uning samaradorligi va sifatini oshirish imkoniyatlarini aniqlab beruvchi hodisa va jarayonlarga aytiladi. Iqtisodiy omillarga foydalanilayotgan resurslar miqdorini oshirish va sifatini takomillashtirish omillari kirs, noiqtisodiy omillar o'z ichiga siyosiy, harbiy, geografik, iqlimiy, milliy va madaniy omillarni oladi.

Iqtisodiyot nazariya-sida barqaror iqtisodiy o'sish degan tushuncha ham mavjud bo'lib, u barqaror rivojlanishning alohida tarkibiy qismi hisoblanadi. Barqaror iqtisodiy o'sish mamlakat iqtisodiy o'sish sur'atlarining ma'lum yillar davomida (odatda besh yil) ijobiy va o'zaro muvofiq o'sish dinamikasidan vujudga keladigan iqtisodiy o'sishdir. Makroiqtisodiy o'sish - butun jamiyat miqyosidagi, masalan, mamlakat miqyosidagi iqtisodiyotni o'sishdir. U jamiyat ishlab chiqarish faoliyatining natijasi bo'ladi, turli korxona va tarmoqlardagi makroiqtisodiy o'sishning mazmuni sifatida yuzaga keladi. Mikroiktisodiy o'sish - bu korxona, xo'jalik firma va tarmoq doirasidagi o'sishdir, shu doiradagi mehnat qiluvchilar iqtisodiy aniqrog'i guruhiiy faoliyatning natijasidir.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning quyidagi omillarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- jamg'arishning yuqori darajasi;
- investitsiyalar samaradorligi;
- ta'limni rivojlantirishga kata harajatlar qilish;
- jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv;
- ratsional makroiqtisodiy dasturlarni amalga oshirish.

Barqaror iqtisodiy o'sishning konseptual jihatlar va ta'minlash omillari rivojlangan mamlakatlar tajribasida muhim o'ringa ega. Ushbu mamlakatlar, barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun qator samarali strategiyalarni amalga oshirgan. Quyida rivojlangan mamlakatlarning tajribasi aks ettirilgan:

Norvegiya: Energiya resurslari (neft)dan kelgan daromadlarni diversifikatsiya qilish uchun investitsiyalarni ta'lim, texnologiya va yashil energiyaga yo'naltirgan. Bu iqtisodiy qiyinchiliklarga qarshi turishga yordam berdi. Bunda iqtisodiy diversifikatsiyadan foydalanish samarali usul hisoblanadi.

Iqtisodiy diversifikatsiya – bu iqtisodiyotning bir yoki bir nechta sohalarga qaramligini kamaytirish va yangi sohalarni rivojlantirish jarayonidir. Norvegiya bu borada yaxshi misol bo'lib, uning energiya resurslaridan kelgan daromadlarni diversifikatsiya qilish strategiyalari quyidagi jihatlarini o'z ichiga oladi:

Bunda mamlakatda neft va gazdan olingan daromadlarni investitsiyalash orqali iqtisodiy diversifikatsiya rag'batlantirildi. Ular bu daromadlarni davlat fondiga (Norvegiya Sovrin fondi) yo'naltirib, kelajak avlodlar uchun mablag'larni to'plashga harakat qilishdi. Bundan tashqari ta'limga katta sarmoya kiritish, zamonaviy texnologiyalarni rivojlantirish va tadqiqotlar olib borish orqali Norvegiya iqtisodiyoti yangi sohalarga o'sish imkoniyatlarini yaratdi. Norvegiya yashil energiya manbalariga (quyosh, shamol va gidroenergiya) investitsiyalarni oshirdi. Bu energiya ishlab chiqarishdagi barqarorlikni ta'minlashga yordam berdi. Neft va gazdan tashqari, turizm, qishloq xo'jaligi, texnologiya va boshqa xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirishga qaratilgan strategiyalarni amalga oshirdi. Xalqaro darajada hamkorlikni rivojlantirib, global bozorlar bilan aloqalarini mustahkamladi, bu esa iqtisodiy diversifikatsiyani qo'llab-quvvatladi.

Norvegiyaning iqtisodiy diversifikatsiya strategiyalari iqtisodiy qiyinchiliklarga qarshi turishga, ish o'rinlarini yaratishga va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga yordam berdi. Bu mamlakat o'z iqtisodiyotini barqaror ravishda rivojlantirishda muvaffaqiyat qozondi.

Shvetsiya. Barqaror iqtisodiy o'sishga erishish bo'yicha Shvetsiya tajribasi ham boshqa mamlakatlarga namuna bo'la oladi. Shvetsiya barqaror ekologik siyosatni amalga oshirishda dunyo bo'ylab ilg'or mamlakatlardan biri hisoblanadi. Ularning ekologik siyosati atrof-muhitni himoya qilish va iqtisodiy o'sishni barqaror tarzda rivojlantirishga qaratilgan. Shvetsiya, ekologik barqarorlikni iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jihatlarini uyg'unlashtirib amalga oshirgan mamlakat sifatida yaxshi tanilgan.

Shvetsiya energiya ishlab chiqarishning katta qismini qayta tiklanuvchi manbalardan, jumladan, quyosh, shamol, gidroelektrika va biomassadan oladi. Shvetsiya hukumati 2040 yilga borib, elektr energiyasining 100 foizini qayta tiklanuvchi manbalardan olishni maqsad qilgan. Biomassa energiya manbai sifatida katta ahamiyatga ega. Shvetsiya o'zining issiqlik va elektr energiyasini ishlab chiqarishda, ayniqsa, o'simlik va chiqindilarni qayta ishlashni kuchaytirdi. 2015 yilda Shvetsiya iqlim bo'yicha «Parij kelishuviga» qo'shilib, iqlim o'zgarishini kamaytirishga qaratilgan global sa'y-harakatlarga hissa qo'shishga tayyorligini bildirgan mamlakatlardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari Shvetsiya chiqindilarni qayta ishlash va ularni minimalizatsiya qilishda dunyo bo'ylab yetakchi davlatlardan biridir. Mamlakatda chiqindilarni qayta ishlash darajasi juda yuqori — taxminan 99% chiqindilar qayta ishlanadi. 2018 yilda Shvetsiya, chiqindilarni ko'mishdan voz kechgan yagona davlat sifatida Waste-to-Energy (chiquvchi chiqindilardan energiya olish) texnologiyalarini joriy etdi. Bu texnologiya chiqindilarni yoqish orqali elektr va issiqlik energiyasiga aylantiriladi, bu esa energiya resurslarini tejashga yordam beradi. Shvetsiyada chiqindilarni qayta ishlash va kompostlashtirish tizimlari, shuningdek, plastmassalarni qayta ishlash kabi innovatsiyalar keng tarqalgan. Shvetsiya suv resurslarini boshqarishda ekologik barqarorlikni ta'minlashga katta ahamiyat beradi. Mamlakatda suv resurslarining ifloslanishini kamaytirish uchun qattiq cheklovlar va tashabbuslar mavjud. Masalan, sanoat korxonalar va qishloq xo'jaligi uchun ifloslantiruvchi moddalarning chiqishini kamaytirish bo'yicha qonunlar joriy etilgan. 2016 yilda Shvetsiya hukumati «Suv resurslarini boshqarish bo'yicha Milliy strategiya»ni e'lon qildi, bu suvni saqlash va uni ekologik toza tarzda ishlatishni ta'minlashni maqsad qilgan. Shvetsiya barqaror ekologik siyosatni amalga oshirishda aholining ekologik bilimini oshirishni maqsad qilgan. Davlat ekologik ta'limni maktablar va jamoat joylarida faol targ'ib qiladi. Aholining atrof-muhitga oid xatti-harakatlarini o'zgartirish,

masalan, chiqindilarni ajratish, qayta ishlash va energiya tejashni o'rgatish juda muhimdir. Shvetsiya o'zining barqaror ekologik siyosati bilan boshqa mamlakatlarga namuna bo'lib kelmoqda. U ekologik barqarorlikni iqtisodiy o'sish bilan uyg'unlashtirishda katta muvaffaqiyatlarga erishgan. Energiya samaradorligi, chiqindilarni boshqarish, qayta tiklanuvchi energiyaga o'tish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish kabi sohalarida amalga oshirilgan siyosatlar Shvetsiyani ekologik jihatdan barqaror davlatga aylantirgan.

Xulosalar va takliflar. Ushbu mamlakatlar tajribasidan xulosa qiladigan bo'lsak, Norvegiya va Shvetsiya o'zlarining barqaror iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlikni ta'minlash bo'yicha amalga oshirgan strategiyalari bilan dunyo miqyosida muvaffaqiyatli tajribalarni namoyish etadi. Har ikkala mamlakat ham o'z iqtisodiy tizimlarini tabiiy resurslarga, ayniqsa, neft va gazdan olingan daromadga qaramlikdan chiqarib, iqtisodiy diversifikatsiya va yashil energiyaga yo'naltirilgan investitsiyalarni kuchaytirish orqali barqaror rivojlanishning asoslarini yaratgan. Norvegiya o'zining neft va gazdan olingan daromadlarni diversifikatsiya qilishga yo'naltirgan strategiyalari bilan ajralib turadi. Mamlakat, bu daromadlarni kelajakda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun davlat fondiga yo'naltirib, zamonaviy texnologiyalar va ta'lim sohalariga sarmoya kiritish orqali iqtisodiy o'sishni yangi sohalariga kengaytirgan. Shuningdek, Norvegiya, qayta tiklanuvchi energiyaga investitsiyalarni

oshirib, o'z energiya ishlab chiqarish tizimini barqarorlashtirishga erishgan. Shvetsiya esa, ekologik barqarorlikni iqtisodiy o'sish bilan uyg'unlashtirgan davlat sifatida iqlim siyosatlari va qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o'tish borasida muvaffaqiyat qozongan. Shvetsiya chiqindilarni qayta ishlash, «Waste-to-Energy» texnologiyasini joriy etish, energiya samaradorligini oshirish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish orqali barqaror ekologik siyosatni amalga oshirgan. Bu jarayonlar, mamlakatni faqat iqtisodiy o'sishda emas, balki ekologik jihatdan barqaror, yashil iqtisodiyotga asoslangan tizimga olib keldi.

Umuman olganda, Norvegiya va Shvetsiya tajribalari, barqaror iqtisodiy o'sishga erishish uchun nafaqat tabiiy resurslar va sanoatga, balki innovatsion texnologiyalar, yashil energiya va ekologik siyosatlarga ham jiddiy e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi. Bu mamlakatlar, barqaror iqtisodiy o'sish va atrof-muhitni himoya qilishning o'zaro uyg'unlashtirilgan modelini amaliyotda muvaffaqiyatli qo'llab, boshqa mamlakatlar uchun ham yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qilmoqda. Bu davlatlarning tajribalari, rivojlanayotgan mamlakatlarga o'z iqtisodiyotlarini ekologik va ijtimoiy barqaror tarzda rivojlantirishda yordam beradi. Bu yondashuvlar, global miqyosda iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va resurslardan samarali foydalanishning muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-son qarori.
3. Qosimova H.J, Saidova M. Iqtisodiyotni "yashil iqtisodiyot" asosida samarali rivojlantirish. "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash: muammolar va yechimlar" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 5- may 2023-yil
4. Qosimova H.J, Salimov M.A. Effective Development of the Economy on the Basis of «Green Economy». Web of synergy: International Interdisciplinary Resesarch.
5. Formation of a cooperative fund for agriculture and mechanisms of its distribution, Qosimova Hilola Jamshedovna, 65-bet.

Хурматли журналхонлар!

“AGROIQTISODIYOT” илмий-амалий аграр иқтисодий журнали 2017 йил июнь ойидан бошлаб нашр этила бошланди. Унда иқтисодиёт мавзусидаги мақолалар билан қатнашиш мумкин. Журнал ҳар чоракда бир маротаба чоп этилади. Байрамлар, илмий-амалий анжуманлар ва юбилейлар муносабати билан журналнинг махсус сони ҳам чоп этилиши мумкин.

Журналда чоп этиладиган мақолалар **ўзбек, рус ва инглиз** тилларида қабул қилинади. Уларнинг ҳар бири **8 бетдан** кам бўлмаслиги, **A4 ўлчамдаги** оқ қоғозда, **1,5 интервал** билан **14 шрифтда** Times New Roman шрифтида тайёрланган, **ўзбек, рус, инглиз тилларида** калит сўзлар ва қисқача аннотация илова қилинган, муаллифнинг фамилияси, исми ва шарифи, иш жойи, лавозими, илмий даражаси ва унвони, манзили, телефон рақами ва электрон почтаси кўрсатилган ҳолда тақдим этилиши керак.

Мақолани электрон почта ooqxssrtxm@agro.uz орқали ҳам юборишингиз, маълумот учун эса қуйидаги телефонларга мурожаат этишингиз мумкин: (+0371) 2605230, 2605261.

Ушбу журналда эълон қилинган мақолалар билан **Озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги соҳасида стратегик ривожланиш ва тадқиқотлар халқаро марказининг** веб сайти www.iscad.uz орқали танишишингиз мумкин.

Манзил: 100140, Тошкент вилояти, Қибрай тумани, Университет кўчаси, 2 уй.
Озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги соҳасида стратегик ривожланиш ва тадқиқотлар халқаро маркази (ISCAD)

Таҳририят:

Мусахҳиҳ: **Янгибоев Д.Ф.**

Дизайнер-саҳифаловчи – **Садуллаев У.Н.**

Таҳририят манзили:

100140, Тошкент вилояти, Қибрай тумани

Университет кўчаси, 2 уй.

Тел.: (+0371) 2605230

Факс: (+0371) 2605230

E-mail: ooqxssrtxm@agro.uz

Бичими 60x84 1\8 (4 б.т.). Адади 150.

Чоп этишга 15.12.2024 йилда рухсат этилди.

8/15 сонли буюртма.

“BOOK MEDIA PLUS” хусусий корхонасида тайёрланди

Манзил: Тошкент ш., Чилонзор тумани,

Чўпон ота кўчаси, 6 уй.

“AGROIQTISODIYOT” журналидан кўчириб босиш фақат таҳририятнинг ёзма розилиги билан амалга оширилади.

Таҳририят фикри муаллифларнинг фикр ва қарашларига мос келмаслиги мумкин.

Мақолаларда **академик ҳалоллик, бошқа манбалардан ўзлаштириш ҳолати ҳамда факт ва рақамларнинг ҳаққонийлиги**га муаллиф шахсан масъул.

Реклама мазмунига реклама берувчи жавобгар.